



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 IYUN
№29**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-ҚЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Norjigitov Bobur Mamir o'g'li	
DEMOKRATIK JAMIYATDA QASAM VA KAFFOROTGA MUNOSABAT.....	7
2. Ibragimov Sodiq Izzatovich	
AMIR TEMURNING OZARBAYJONGA HARBIY YURISHI.....	10
3. Юнусова Дилноза Маметшариповна	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ УЙҒОНИШ – УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЗАРУРИЯТИ	11



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТДА QASAM VA KAFFOROTGA MUNOSABAT.

Norjigitov Bobur Mamir o'g'li,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

Telefon: +998994731938

Boburibnmamur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada demokratik jamiyatlarda qasam hamda kafforotga bo'lgan munosabat o'rganilgan. Qasam va kafforotning hozirgi ko'rinishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Demokratiya, vijdon erkinligi, qasam, qasamyod, kafforot.

Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy madaniy va axloqiy merosi negizlari asosida rivojlandi. Bunday uyg'unlik xalqni rivojlanishida yangi bosqichlarga ko'taradi, uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Bugungi kunda yer yuzidagi davlatlarning aksariyati rivojlanishning demokratik tamoyillariga tayanib kelmoqda. Barchamizga ma'lumki demokratik jamiyatlarning eng asosiy belgisi bu fuqarolarning huquq va erkinligini kafolatlanishi hisoblanadi. Har bir davlatda, millatda o'ziga xos qadriyatlar, mentalitet, an'analar mavjuddir. Ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi, binobarin demokratik muassasalarni shakllantirishda mazkur omillar, albatta, hisobga olinadi. Demokratik tamoyillarning eng muhim va ajralmas qismi hisoblanadigan vijdon erkinligi ham qonunlar orqali mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Bu erkinlik haqida alohida to'xtalib o'tsak.

Vijdon erkinligi- ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. 1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 18-moddasida "Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi" -, deb ko'rsatilgan bo'lsa, huddi shu huquqiy hujjatning 19-moddasida "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi" -, deya ta'kidlangan. BMTning ushbu qonunini ratifikatsiya qilgan barcha davlatlar o'z qonunchiligida vijdon erkinligini kafolatlab qo'yishi shart hisoblanadi.

O'zbekiston ham dunyoviy davlat sifatida ushbu hayotiy huquqni asosiy qonunchiligida ko'rsatib o'tgan. Xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31- moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"-, deb belgilangan. Demak, dunyoviy davlatlarda amal qiladigan davlat va din munosabatlari prinsiplari O'zbekistonda ham amal qiladi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yilning 1 mayida yangi tahrirda 23 moddadan iborat „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Rivojlanishni demokratik yo'lini tanlagan dunyoviy davlatlarda ham aholining ijtimoiy turmush tarzida diniy qarashlar muhim ahamiyat kasb etib keladi. Buni biz nikoh, dafn marosimlarida, o'zaro ijtimoiy aloqlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda tadqiq qilayotgan mavzumizdagi qasam va kafforot diniy amallari ham dunyoviy davlatlarda yashab kelayotgan aholining ijtimoiy hayotida alohida ahamiyatga molik masala hisoblanadi desak mubolag'a



bo'lmaydi. Masalaning o'ziga xos tamoni shundaki kelib chiqishi diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan qasam hamda kafforot tushunchalari tuzilishi dunyoviy xarakterda bo'lgan davlatlarning qonunchiligida ham o'ziga xos o'ringa ega. Misol sifatida keltiradigan bo'lsak juda ko'plab dunyoviy davlatlar qonunchiligida hammamizga mashhur bo'lgan prezidentlik qasamyodlari mavjud. Prezident qasamyodi davlatlarning asosiy qonunlarida ko'rsatib o'tilishining o'ziyiq bu e'tiqodiy tushuncha xalqlar ongiga qanchalar chuqur kirib borganini anglatadi. Misol sifatida bir nechta davlatlarda prezident qasamyodlari qay tarzda amalga oshirilishini ko'rib chiqsak. AQSHda prezident qasamyod qilar ekan, Oliy sud raisi aytgan so'zlarni takrorlashi kerak bo'ladi. Qasamyodning mazmuni Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasining II moddasi birinchi bo'limining 8-bandida ko'rsatilgan va yangi prezident har qanday rasmiy vakolat yoki vazifalarini bajarishdan yoki bajarishdan oldin uni qabul qilishi kerak. An'anaga ko'ra qasamyod tadbiri Vashingtondagi Kapitoliy oldida o'tkazib kelinadi. Avvalo prezident ommani o'z dasturi bilan tanishtiradi, tantanali parad, so'ngra bal o'tkaziladi. E'tiborga molik tomoni prezident qasamyod qabul qilayotganda qasamga vosita sifatida Injilga qo'lini qo'yib turadi. Chexiyada davlatida prezident qasamyodi tadbiriga o'ta jiddiy qaraladi. Saylovda g'oliblikni qo'lga kiritgan prezident qasamyod qabul qilayotganda kichik bo'lsa-da xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, davlatda bo'lib o'tgan saylovlar hisobga o'tmaydi. Belorusiya Konstitutsiyasi saylangan prezidentdan lavozimga kirishishdan oldin quyidagi qasamyodni aytishni talab qiladi: Belorusiya Respublikasi Prezidenti lavozimini egallab turib, tantanali ravishda Belorusiya xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish va himoya qilishga, Belorusiya Konstitutsiyasiga rioya qilish va himoya qilishga qasamyod qilaman....¹ Moldovada Prezident saylanganidan keyin 45 kundan ko'p bo'lmagan muddatda parlament va Konstitutsiyaviy sud oldida Moldova konstitutsiyasining 79-moddasida keltirib o'tilgan quyidagi qasamyodini qabul qiladi: "Moldova Respublikasining ravnaqi uchun barcha shaxsiy kuch va qobiliyatlarimni sarflashga, mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilishga, demokratiyani, insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini, suvereniteti, mustaqilligi, birligi va hududini himoya qilishga tantanali ravishda qasamyod qilaman". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasida prezident qasamyodi matni quyidagicha keltirilgan. "O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman".

Ma'lumki dunyoning aksariyat mamlakatlarida, diniy institutlar katta kuchga ega bo'lib ijtimoiy siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatib keladi. Ya'ni qasamyod qabul qilayotgan davlat rahbarlari qo'lini xalqning asosiy qismi e'tiqod qilib kelayotgan dinning muqaddas kitobga qo'yadi. Va shu tarzda amalga oshirilgan qasamyod rasmiy tusga ega bo'ladi. Turli davlatlarning prezident qasamyodlaridagi tantanalarda ma'lum o'xshashliklar va farqlar mavjud.

Har bir mamlakatda belgilangan qasamyod matni mamlakatning asosiy strategik yo'li, ko'zgusidir [4].

Barcha mamlakatlarning Prezidentlari qasamyodi matnida umumiylik mavjud bo'lib, bular:

- xalqqa va Vatanga sadoqat hamda vijdonan xizmat qilish;
- inson va fuqarolar huquq, erkinligini ta'minlash;

Konstitutsiya va qonunlarni himoya qilish, ularni ta'minlash vazifasini zimmaga olish hisoblanadi [4].

Bulardan tashqari, turli mamlakatlar Prezidentlari o'z qasamyodlarida yuqoridagilardan tashqari majburiyatlarni yaqqolroq ifodalovchi holatlarni, milliy xususiyatlarni ko'rish mumkin.

Dunyoviy qonunchilikka asoslangan davlatlarda yana bir keng tarqalgan qasamyod turi bu nikoh qasamidir. Misol sifatida keltiradigan bo'lsak Angliya va ADShda nikohdan o'tish uchun tomonlar majburiy tartibda diniy xizmatchi oldida qasam ichishi yoki fuqarolik tartibda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar yo'qligi xususida va'da berishi lozim. Nikohni e'lon qilish va nikohdan o'tishga ruxsatnoma belgilangan muddat mobaynida (bir oydan bir yilgacha) amal qiladi va bu muddat o'tgach bu taomillarni qaytadan amalga oshirish talab etiladi [5].

Shuningdek yana eng keng tarqalgan qasamyod tantanalaridan biri bu harbiy qasamyod hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu qasamyod tadbiri dunyoning deyarli barcha davlatlarida o'tkazib kelinadi.

¹ "Belarus Respublikasi Prezidentining rasmiy internet-portali / Status". President.gov.by. 1998-05-11.



Demokratik mamlakatlardan biri hisoblangan O'zbekiston qonunchiligining boshqa qisimlarida ham qasam va kafforot bilan bog'liq bo'lgan holatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan fuqarolik huquqini olaylik. 2018 yil 22 yanvar sanasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksi"ning 229-moddasida guvohlarni so'roq qilish tartibi keltirilgan bo'lib unda sud jarayoniga raislik qiluvchi guvohni so'roq qilishdan oldin uning shaxsini, yoshini, mashg'uloti turini, ushbu ishga aloqasini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini aniqlaydi, shuningdek uni bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo'lishi to'g'risida ogohlantiradi. Shundan keyin raislik qiluvchi guvohga: "Ish yuzasidan o'zimga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni sudga aytib berishga qasamyod qilaman. Faqat haqiqatni, barcha haqiqatni gapirib beraman, haqiqatdan o'zga narsani gapirmayman" deb oshkora qasamyod qilishni taklif etadi. Guvohdan unga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi to'g'risida tilxat olinadi. Qasamyodning matni va tilxat sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yiladi [2]. Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq esa yolg'on guvohlik berish, ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog'ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berishi, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi - uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoxud ishni sudda ko'rish chog'ida yolg'on ko'rsatuvlar berish uchun guvohni yoki jabrlanuvchini yoki yolg'on xulosa berish uchun ekspertni yoxud noto'g'ri tarjima qilish uchun tarjimonni pora evaziga og'dirib olish, xuddi shuningdek ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish orqali yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish —uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yohud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ko'rib chiqqanimizdek qonunchiligi dunyoviylikka asoslangan, boshqaruvda demokratik tamoyillarga tayanadigan davlatlarning huquqiy hujjatlarida kelib chiqish obyekti diniy e'tiqodlarga borib taqaladigan qasam va kafforotning o'ziga xos talqinlarini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T: O'zbekiston, 2020. – 40 b. <https://lex.uz/docs/-3517337>
2. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
3. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq T.: "Adolat" 2013. 342-b
4. Oila huquqi. Mualliflar jamoasi. Prof. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2016.



AMIR TEMURNING OZARBAYJONGA HARBIY YURISHI.

Ibragimov Sodiq Izzatovich
BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti
1-bosqich talabasi.
Tel.(88) 304-33-83.

Ushbu maqolada buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sarkarda, madaniyat, asar, tarix, diniy, dunyoviy bilim, bunyodkorlik, davlat, huquqiy qadriyat, adolat.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Amir Temur faoliyati dolzarb va kata qadriyat sifatida o'rganilmoqda. Amir Temur haqida bizda Osiyo, Evropa va Amerikada ko'plab asarlar bitilgan bo'lib, u insoniyatning noyob bir vakili sifatida o'ziga tortadi. Amir Temur 14 yoshga kirganda uning ota-onasi Kesh shahridagi Abdulla Qutb madrasasiga o'qishga beradilar. Bu yerda u diniy kitoblar bilan birga masnaviyda yozilgan sheri kitoblarni qiziqib o'qiydi. Temurbek madrasada Jaloliddin Rumiyni "Ma'naviy va Masnaviy" kitobida o'ziga yoqqan joylarni yod oladi. U sevib o'qigan va ko'p joylarni yod olgan yana bir she'riy asar Ozarbayjonlik shoir Mahmud Shabistariyni "Gulshani roz" ("Sirlar gulshani") nomli kitobi ekan. Fransuz yozuvchisi Marsel Bryun Amir Temur haqida roman yozadi. Bu romanning forscha nomi "Manam Temuriy Jahonkusho" ("Men jahonni ochgan Temurman") nomli romanida Amir Temurning olim-ulamo va shoir va mashoyixlarga hurmati va ixlosi baland ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu roman P.M Mansuriy tomonidan fors tilida tarjima qilingan. Amir Temur 3 yillik yurishi paytida Ozarbayjonga qo'shin tortib borganda Shabistar degan qishloqqa duch keladi. Bu qishloqning nomi yoshligida kitoblarini sevib o'qigan Mahmud Shabistariyni va uning "Gulshani roz" kitobini eslatadi. So'rab surishtirishlaridan ma'lum bo'ladiki, bu kitobni yozgan shoir shu qishloqda yashab o'tgan ekan. Hamqishloqlari bu shoirning qarovsiz yotgan qabrini Amir Temurga ko'rsatadilar. Shunda Amir Temur o'z odamlariga qabr o'rniga mo'jaz bir maqbara qurishni, yaqin atrofda maqbaraga qarashli vaqf yer ajratishni, undan keladigan daromad hisoniga bog' barpo etish va shoir qabrini ziyoratgoh kabi obod saqlashni buyuradi. Amir Temur ayni vaqtda butun qishloq aholisini ro'yxatga oladi. Katta qishloq ekan, 15 yoshdan yuqori erkak-ayollar soni 3891 nafar chiqadi. Amir Temur maxsus farmon berib 3891 nafar odamlarning har biriga shoir Shabistariyni hurmati va xotirasi uchun 5 misqoldan oltin ulashadi. Bir misqol 5 grammga to'g'ri keladi. Umumiy hisobda 19455 gramm, ya'ni bugungi hisobda salkam 20 kilogramm oltin Amir Temurga o'z kitobi orqali oliy janob ta'sir ko'rsatgan shoirning el-yurtiga mukofot tarzida beriladi. Amir Temur kitoblarini yaxshi ko'rib o'qigan va yod olgan shoirlarga nisbatan hurmati qay darajada ekanligini yuqoridagi jumalardan bilib oldik. Amir Temur jangda g'alaba qozonish uchun dushmani jang maydonida tor-mor qilshga erishardi. Lashkar doimo qattiq intizomini saqlardi. Shu tariqa Temur yagona boshqaruvli katta saltanat yaratishga erishdi.

Shunday qilib, Amir Temur qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsa u yerdagi olim va barcha ilm arboblari hunarmandlar va boshqa iqtidor egalarini Movorounnahrda olib kelib ularning bu xislatlaridan yaxshi maqsadlarida foydalanilgan. Amir Temur bundan tashqari mamlakatni bosib olishda qanday vayronagarchilikka yo'l qo'ygan bo'lsa ularning o'rniga undan ham chiroyli bino va yodgorliklarni barpo etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azamat Ziyoy. O'zbekiston davlatchiligi tarixi «Sharq nashriyoti»2001-y. 366 b.
2. Y.Z.Abdullayev, O'.H.Temirov Harbiy tarix O'quv uslubiy qo'llanma Buxoro 2008-y. 24-25-betlar.
3. «Amir Temur tuzuklari» Cho'lpon nashriyoti.



ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ УЙҒОНИШ – УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЗАРУРИЯТИ

Юнусова Дилноза Маметшариповна,
Тошкент шаҳар, Юнусобод тумани
51-ДИУМ “Тарих” фани ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда янги уйғониш – учинчи ренессанс амалга ошириш зарурияти вужудга келганлигини ўтган икки Уйғониш даврида миллатимиз қўлга киритган ютуқларга таянган ҳолда асослаб берилган.

Калит сўзлар: ренессанс, уйғониш давр, тарихий ташаббус, ижтимоий тафаккур, буюк алломалар, улкан тараққиёт

Ўзбекистонда кенг қўламда амалга оширилаётган ислохотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан айнан давлат ва фуқаролик жамияти ўртасидаги яқин ҳамкорликка боғлиқ жараён дир. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Бизнинг яна бир муҳим вазифамиз – фуқаролар, давлат ва жамият ўртасида ўзаро масъулият, ҳуқуқ ва бурч боғлиқ эканига оид принципни изчил амалга оширишдан иборат. Бу принцип мамлакатимиз олдида турган муҳим вазифаларни ҳал қилишда давлат ва фуқаролик жамияти ўртасида самарали ҳамкорликни таъминлайдиган конституциявий асосдир. Биз барчамиз – фуқаролар ҳам, жамият ҳам, давлат ҳам Ватанимиз равнақи учун, мамлакатимизда тинчлик-барқарорликни мустаҳкамлаш учун, тарихий, маънавий ва маданий меросимизни сақлаш, бойитиш ва келгуси авлодларга безавол етказиш учун бирдек масъулмиз”. Бугун кунда биз жамиятимиз ҳаётининг барча соҳаларда Ҳаракатлар стратегияси амалга оширилаётган, Янги Ўзбекистон барпо этилаётган замонда яшамоқдамиз. Мамлакатимизда ўз умрини яшаб бўлган эски парадигмалар чекиниб, янги давр бошланди, янги воқелик бўй кўрсатмоқда. Улкан имкониятлар, кенг қўламли ислохотлар даври келди.

Ана шу жараёнда Учинчи Ренессанс ғояси атрофида кенг муҳокамалар бошланганининг ўзи муҳим воқеа эканини тан олиш керак. Биринчидан, илгари сурилган ғоя жамиятда катта қизиқишга сабаб бўлгани орқали фаол фикр алмашиш, ижтимоий тафаккурда ўзига хос қалқиш юзага келишига тurtки берди. Иккинчидан, жамият аъзоларининг кўнглидаги, шу-уридаги интилишларни, ўз даврида аждодлар амалга оширган ишларни янгича кўринишда давом эттириш орзу-истакларини кўзгатиб юбориб, юрт эртасига дахлдор тарихий ташаббусни қўллаб-қувватлаш билан чекланиб қолмасдан, ушбу фикр юзасидан ўз қарашларини ифода этиш, жараёнга муносиб ҳиссасини қўшишга кучли рағбат пайдо қилди. Тарихдан маълумки, юрт етакчиси ўртага ташлаган ғоя кенг жамоатчиликда акс-садо бериб, фаол қўллаб-қувватланувчи мафкура сифатида шакллansa, у, албатта, жамиятни етакловчи реал кучга айланади.

Мавзуга доир билдирилаётган муносабат, таҳлилларда унинг турли жиҳатларини очиб беришга ҳаракатлар кўзга ташланмоқда. Айрим тадқиқотчилар Уйғониш давларини буюк алломаларнинг номлари билан боғлиқ равишда кўраётир. Баъзилар ўша даврда фан ва адабиёт тараққий этган деса, бошқа бировлар маданият ва санъат соҳасидаги мислсиз ютуқларни тилга олмоқда. Буларнинг барчаси бежиз эмас. Лекин миллатимиз тарихида алоҳида эътироф этишга арзирли воқеалар тўғрисида гап борганда, аксарият ҳолларда юқорида тилга олинган жиҳатлар билан чекланиб қолинаётгани ҳам бор гап.

Ўзбекистон Президенти ҳозирги даврни Учинчи Ренессансга қиёслаб, бундай фикрни ўртага ташлаши орқали ўтмишимизнинг энг юксак паллалари билан фақат фахрланиб қолмасдан, бир қарашда кўздан йироқ, аслида халқимизнинг улкан тараққиёт босқичига чиқиши учун пойдевор вазифасини ўтаган муҳим асосларни чуқурроқ таҳлил этишга даъват ҳам этмоқда, десак муболаға бўлмайди.

Агар мавзуга шундай таҳлитда ёндошсак, қатор ҳаётий саволлар туғилиши табиий. Хўш, бу қандай эҳтиёжки, фаннинг оламшумул даражада ривожланишига, адабиёт-санъат ёки меъморчиликда янгидан-янги йўналишларнинг пайдо бўлишига тurtки берган, ҳатто бошқа соҳаларда ҳам туб бурилишларга замин яратган?

Мухтасар айтганда, тарихимиздаги биринчи ва иккинчи Уйғониш давларидаги кўплаб ютуқларга асос бўлган асосий омиллардан бири ўлкада кечган иқтисодий юксалишдир.

Таникли сиёсатчи Содиқ Сафоев ўз мақолаларидан бирида IX–X асрларда Самарқандда зарб этилган дирҳам тангаси бутун Европа ва Яқин Шарқ мамлакатларидаги муомалада бўлган пул маблағларининг учдан бирини ташкил этгани тўғрисидаги қизиқарли фактни



келтиради. Ушбу биргина далил аслида ўша замонда ўлкамизда кечган иқтисодий жараёнларнинг ҳосиласини кўрсатади. Биринчи Уйғониш даврида кўплаб шаҳарларимиз ўзига хос савдо ва ҳунармандчилик марказларига айланиб, ишлаб чиқариш турлари доирасида юз берган чуқур меҳнат тақсмоти, савдо соҳасида эса бир томондан ички бозорларда ихтисослашувнинг кучайиши, иккинчи тарафдан, чегарадош ҳудудлар ва чет эл бозорларини ўзлаштириш йўналишида амалга оширилган ниҳоятда интенсив ҳаракатлар, албатта, ўз натижаларини бермасдан қолмади. Қишлоқ хўжалигини юритиш, ерга эгалик қилиш муносабатларидаги ўзгаришлар ҳам ишлаб чиқариш самарадорлигининг ошишига туртки бўлди. Айнан ривожланиб бораётган иқтисодиёт: қишлоқ хўжалиги, ҳунармандчилик, қолаверса, савдо муносабатларининг эҳтиёжлари кўплаб фан соҳаларининг – астрономия, физика, кимё, математиканинг ва бошқаларнинг жадал тараққий этишига туртки берди. Бу адабий жараён, маданий муҳит, меъморчиликда ҳам ўз аксини топди.

Амир Темур ва темурийлар даврида эса мўғул истилосидан кейин ўлка иқтисодий ҳаётини қайта тиклаш ва унинг тараққиётига рағбат бериш борасида мутлақо ўзгача ҳаракатлар амалга оширилди.

Ҳар иккала Уйғониш даврида кечган ҳаёт таҳлил қилинар экан, иқтисодий соҳага салтанат пешволари жуда катта эътибор қаратганига гувоҳ бўламиз. Улар мамлакатда қишлоқ хўжалиги, ҳунармандчилик ва савдони ривожлантириш масалаларини доимий эътиборда ушлаб тургани ва ушбу соҳаларнинг ривожини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаганига кўплаб мисоллар топиш мумкин. Масалан, Амир Темур даврида бир қатор солиқларнинг асоссиз деб топилиб бекор қилингани, темурийлар салтанатига бўйсунган барча сарҳадларда ортиқча солиқлар солиш қаттиқ жазога тортиш учун асос бўлгани, тўловларни ундириш қатъий назоратга олингани, пул муносабатлари доимий равишда такомиллаштириб борилгани тўғрисида манбаларда кўплаб маълумотлар мавжуд.

Сохибқироннинг кўпгина Европа давлатлари қиролларига хат йўллаб, ўзаро савдони ривожлантиришга чорлови ва савдогарларни юрт эгалари ўз ҳимоясига олиши зарурлиги тўғрисидаги таклифи тижорат аҳли ва умуман иқтисодиётга эътибор давлат сиёсатида устувор вазифа бўлганини яққол исботлайди. Ушбу давр иқтисодий ҳаётини характерловчи белгилардан бўлган шаҳарлар, бутун бошли соҳалар ва ҳатто бозорларда (масалан, “Бобурнома”да келтирилган Самарқанд бозорларининг ихтисослашуви тўғрисидаги фикрларни эслайлик) чуқур ижтимоий меҳнат тақсмоти юз беришида ўз аксини топади.

Мамлакатимиз тараққиётининг “Янги Ўзбекистон” деб номланувчи ўзгача сифат босқичида аҳолининг иқтисодий ташаббусларига кенг имконият яратиш, иқтисодий эркинлик, ҳудудларда бизнес муҳитини яхшилашга катта аҳамият қаратилаётгани бежиз эмас. Ўтган икки Уйғониш даврида миллатимиз қўлга киритган ютуқларга таянган омиллар бу йўлнинг нақадар тўғрилигини қайта ва қайта исботлаб турибди.

Юртимизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар дунёда кечаётган “Тўртинчи sanoat инқилоби” арафасида юз бераётгани яна бир бортадбиркорлик ва фан ўртасидаги ҳамкорликнинг мутлақо янги бир босқичга кўтарилишини талаб қилаётир. Ўзбекистонда Инновацион ривожланиш вазирлигининг ташкил этилгани, ахборот технологияларига берилаётган эътибор, кўплаб инновацион марказлар, стартап марказлари ва бошқалар мамлакат тараққиётини белгилашда айнан шундай фундаментал даражадаги янгича ёндашувларга асосланилаётганидан далолат беради.

Тарихимизда ўтган Ренессанс даврларига мурожаат нафақат ривожланиш локомотивларини аниқлашга, балки эндиликда глобал мақсадларни олдига қўяётган халқимиз нималардан огоҳ бўлиши кераклиги тўғрисида ҳам муайян хулосалар қилиш имконини беради.

Адабиётлар:

1. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2020 йил 2 март, ПФ-5953-сон// <https://lex.uz/docs/4751561>

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020 // <https://www.president.uz/uz/lists/view/3324>

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000